

## AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi (28.12.2023 y.)

AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi **2023-yil 28-dekabr kuni, soat 10:00** da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali o'tkazildi.

Yig'ilishga bank Kuzatuv kengashi Raisi Sh.Shermatov raislik qildi. Yig'ilishda bank aksiyadorlari, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolari, Bosh bankning departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari ishtirok etdi.

### Yig'ilishda quyidagi masalalar kun tartibiga qo'yildi:

1. AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. «Shanghai Construction Group Co., LTD» (XXR) va AT «Aloqabank» o'rtasida 2019 yil 28 iyunda tuzilgan ALOQA/SCG-001-sonli qurilish pudrat shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuzish to'g'risida.
3. «Tashkent City» XIMda sotilgan 6-lot hududida tanlangan yer maydonini beg'araz ajratish hamda «Tashkent City» direksiyasi tasarrufiga o'tkazib berish to'g'risida.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar soni **6 059** ta, ularga tegishli bo'lgan jami ovoz beruvchi aksiyalar soni **9 833 141 874** donadan iborat.

Elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali ro'yxatdan o'tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar soni **9 657 509 586** tani tashkil etdi. Ro'yxatdan o'tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar jami ovoz beruvchi aksiyalarning **98,21** foizini tashkil etdi.

Umumiy yig'ilish o'tkazish uchun kvorum mavjud deb hisoblandi.

Kun tartibiga qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish natijalari quyidagi jadvalda berilmoqda:

Kun tartibi	Yoqlash		Qarshi		Betaraflar		
	%	soni	%	soni	%	soni	
1	AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash	99.99998	9 657 507 994	0.00002	1 592	0	0
2	«Shanghai Construction Group Co., LTD» (XXR) va AT «Aloqabank» o'rtasida 2019 yil 28 iyunda tuzilgan ALOQA/SCG-001-sonli qurilish pudrat shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuzish to'g'risida	99.09	9 569 221 816	0.000016	1 592	0.91	88 286 178
3	«Tashkent City» XIMda sotilgan 6-lot hududida tanlangan yer maydonini beg'araz ajratish hamda «Tashkent City» direksiyasi tasarrufiga o'tkazib berish to'g'risida	32.50	3 138 890 321	0.10	9 480 472	67.40	6 509 138 793